

O‘ZBEK TILIDA OT DERIVATSIYASINING LISONIY VA NUTQIY XUSUSIYATLARI

Linguistic and Speech Characteristics of Noun Derivation in the Uzbek Language

Normamatova Mohiniso Erkinovna

mnormamatova9@gmail.com.

BuxDPI 2-bosqich talabasi

Normamatova Mohiniso Erkinovna

Email: mnormamatova9@gmail.com

2nd-year student at BuxDPI

(Bukhara State Pedagogical Institute)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ot derivatsiyasi (ot yasalishi) lisoniy imkoniyat va nutqiy voqelanish paradigmalari doirasida tahlil qilinadi. O‘zbek tilshunosligida ot so‘z yasalishi mavzusi nafaqat nazariy, balki amaliy muloqot uchun ham juda muhimdir. Ot yasovchi affikslarning semantik derivatsiyasi, konversiya hodisasi va nutqiy innovatsiyalar ilmiy asosda yoritiladi.

Abstract: This article analyzes noun derivation (word formation), one of the most significant directions in Uzbek linguistics, within the frameworks of linguistic potential and speech realization paradigms. In Uzbek linguistics, the subject of word formation is essential not only from a theoretical perspective but also for practical communication. The semantic derivation of noun-forming affixes, the phenomenon of conversion, and speech innovations are elucidated on a scientific basis.

Kalit so‘zlar: Ot so‘z turkumi, ot derivatsiyasi, affiksatsiya, kompozitsiya, konvensiya, semantik derivatsiya

Keywords: Noun category, noun derivation, affixation, composition, conversion, semantic derivation.

Kirish

O‘zbek tili aglyutinativ tillar sirasiga kirishi sababli, unda derivatsiya (so‘z yasalishi) jarayoni nihoyatda rivojlangan. Ot turkumiga oid birliklarning yasalishi nafaqat tilning lug‘at boyligini oshiradi, balki til egalarining dunyoni anglash va nomlash (nominatsiya) ehtiyojlarini qondiradi. Ot derivatsiyasini lisoniy (til tizimidagi o‘rni) va nutqiy (muloqotdagi ko‘rinishi) jihatdan o‘rganish tilning dinamik tabiatini

tushunishga yordam beradi. Lisoniy sathda ot derivatsiyasi qat'iy qoidalar, qoliplar va modellar majmuasidan iborat.

Asosiy qism.

Otlar ikki xil – affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Shunga muvofiq, ot yasashning affiksial va kompozitsion qolipi mavjud. Bu qolip ham o'z o'rnida unumli, unumsiz; mahsuldor va kammahsul turga bo'linadi.

Affiksatsiya — bu so'zning o'zagi yoki asosiga so'z yasovchi qo'shimchalar (affikslar) qo'shish orqali yangi leksik birlik hosil qilishdir. Bu o'zbek tili kabi aglyutinativ tillar uchun eng unumli va keng tarqalgan usul hisoblanadi. Ot yasovchi qolipning aksariyati ko'p ma'noli.

-chi affiksi ot + chi = 1) asosdan anglashilgan narsa bilan bo'g'liq kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; 2) asosdan anglashilgan ish-harakat, hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; 3) asosdan anglashilgan ish-harakat, faoliyatda qatnashuvchi shaxs oti; 4) ish - faoliyatda biror oqim, maslak va tarafdori, shularga mansub bo'lgan shaxs bildiruvchi ot; 5) asosdan anglashilgan hodisani, ish - harakatni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxsni bildiruvchi ot qolipi hisoblanadi: sportchi, xabarchi, muzokarachi, respublikachi, kekchi singari.

- shunos affiksli **ot + -shunos = asosdan anglashilgan sohani o'rganuvchi mutaxassis** qolipi bir ma'noli bo'lib, u quyidagi hosilalarni bergan: adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos, o'lkashunos, musiqashunos.

- kor affiksli ikkita qolip mavjud:

a) aniq ot + - kor + asosdan anglashilgan narsa, predmetni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti: paxtakor, lavlagikor, sholikor, g'allakor

b) mavhum ot + - kor = asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs: madadkor, gunohkor, tajovuzkor, tashabbuskor, ijodkor

"Shunday ot yasash qoliplari borki, ulardan bugungi kunda yangi so'z yasalmaydi. Hosilalarning barchasi lisoniy tabiatli. ot + -goh = asosan ish-harakat bajarilgan joy oti (sayilgoh, ayishgoh, manzilgoh). ot + -don = asosan anglashilgan narsa/predmet saqlanadigan predmetni ifodalovchi ot (qalamdon, tuzdon, kuldon). ot + -xona = asosan anglashilgan ish-harakatga mo'ljallangan joy oti (ishxona, qabulxona, choyxona, oshxona). ot + -obod = asosan anglashilgan narsa/predmet obod qilgan joy oti (Dehqonobod, Mehnatobod). ot + -noma = asosan anglashilgan narsa/predmetni ifodalovchi ot (ariznoma, taklifnoma, sayohatnoma)."

Substantivatsiya (Konversiya): Sifat, son yoki ravish kabi turkumlarning otlashishi lisoniy derivatsiyaning o'ziga xos shaklidir. Bunda so'z morfologik shaklini

o'zgartirmasdan, sintaktik vazifasi va leksik ma'nosi orqali ot turkumiga ko'chadi (masalan: yaxshi (sifat) – yaxshilar (ot)).

Ot derivatsiyasining nutqiy xususiyatlari lisoniy imkoniyatlarning jonli muloqotda, matnda yoki nutq vaziyatida namoyon bo'lishidir. Agar lisoniy derivatsiya (til tizimi) qoliplar majmuasidan iborat bo'lsa, nutqiy derivatsiya bu qoliplarning amaldagi ijrosidir. Nutqiy sathda derivatsiya jarayoni lisoniy qoliplardan foydalangan holda, muayyan muloqot vaziyatiga moslashadi. Bu yerda okkazionalizm (shaxsiy-mualliflik so'zlari) va kontekstual ma'no ustuvorlik qiladi.

Okkazional otlar: Yozuvchi yoki so'zlovchi tomonidan faqat o'sha matn uchun yaratilgan, tilda hali umumiste'molga kirmagan yasama otlar. Bu nutqning ekspressivligini oshiradi. So'zlovchi tilda mavjud tayyor so'zdan emas, balki mavjud qolipdan foydalanib, faqat shu vaziyat uchun yangi so'z yasaydi. Biror kishi haddan tashqari ko'p choy ichsa, hazil tariqasida uni "choyxo'r" emas, "choypaz" yoki "choyparast" deb atash mumkin. Bu so'z lug'atlarda bo'lmasligi mumkin, lekin nutq vaziyatida tushunarli bo'ladi.

Xulosa

O'zbek tilida ot derivatsiyasi lisoniy jihatdan boy va tizimli grammatik bazaga ega. Nutqiy jarayonda esa bu baza muloqot ehtiyojidan kelib chiqib transformatsiyaga uchraydi. Til va nutq o'rtasidagi bu dialektik aloqa ot yasash jarayonini doimiy harakatdagi mexanizmga aylantiradi. Kelajakda ot derivatsiyasining kognitiv va pragmatik jihatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligi uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Hojiyev "O'zbek tili so'z yasalishi". – Toshkent, 1989.
2. Sayfullayeva R. va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". – Toshkent, 2009.
3. Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". – Toshkent, 2005.
4. G'ulomov .A., Asqarova .M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T.: O'qituvchi, 1987
5. O'zbek tili grammatikasi.T.2 . Sintaksis.-T.: , 1976.